

To'ra Bobolovning navbatdagi tadbirkorlar qabuli bo'lib o'tdi



Termiz shahridagi "Imom At-Termiziy" ilmiy tadqiqot markazining majlislar zalida viloyat hokimi To'ra Bobolovning navbatdagi "Tadbirkorlar qabuli" bo'lib o'tdi.

Unda viloyat hokimining o'rinbosarlari, kotibiyat mudirlari, viloyat prokurori o'rinbosari, Termiz shahar va Termiz tumani hokimlari, shahar va barcha tumanlar birinchi o'rinbosarlari, iqtisodiy korxonalar va aloqador tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

Qabulda shahar va tumanlaridan 35 nafar tadbirkor o'zini qiynayotgan masalalar bo'yicha viloyat rahbariga murojaat qildi.

Murojaatlarning asosiy qismi tijorat banklaridan kredit olish, kommunal sohadagi muammolar va boshqa sohalarga oid masalalar bilan bog'liq bo'ldi.

Qabulda qatnashgan tadbirkorlarning 4 nafarining murojaati joyida hal etilgan bo'lsa, yechimi ma'lum vaqt talab etiladigan 31 ta masala bo'yicha aloqador tashkilotlarga topshiriqlar berildi.

https://t.me/axborot_xizmati